

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot

instituti direktori N. M. Egamberdiyeva



“25” august

2024-yil

**22.00.02 – “Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi”
ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni dasturi**

TOSHKENT – 2024

Ushbu dastur ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantlar (PhD) va doktorantlarga (DSc) mo'ljallangan bo'lib, unda sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishi, uning tarkibiy tuzilishi, jamiyatni yaxlit tizim tariqasida tahlil qilish, ijtimoiy hayotda sotsial institutlar roli, deviant xulq-atvor va sotsial nazorat masalalari, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va stratifikatsion jarayonlar, sotsial munosabatlar masalalariga e'tibor qaratilgan.

Tuzuvchi:

s.f.d., prof. Sh. Sodiqova

Taqrizchi:

s.f.d., dots. X.Xusanova

Mazkur dastur "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kengashining 2024-yil 27-avgustdagi 5-sonli majlisida tasdiqlangan.

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2020-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi 367-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda bиринчи bo‘g‘in sifatida ishslashini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-208-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 1-martdagi PQ-146-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruva tizimini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 31-martdagi 145-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan.

Hozirgi o‘zgarishlar jarayonida ta’lim tizimida chuqur islohotlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Bu islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ta’limning tub maqsadi va mohiyatining o‘zgarib borishi, uning aholi talab-ehtiyojlarini qondirishga qaratilayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarning eng muhim tomonlaridan biri ta’limning ijtimoiylashuvi va ta’lim tizimining insoniyashuvi (gumanizatsiyalashuvi)dan iborat. Bugungi kunda

davlatimiz ta’lim tizimidagi professor-o‘qituvchilar va talabalarni dunyoviy, zamon talablariga javob beradigan ijtimoiy-gumanitar bilimlarni egallashga yo‘naltirmoqda.

Ijtimoiy-gumanitar bilimlarni egallash jarayonida sotsiologik ta’limotlar muhim o‘rin egallaydi. Sotsiologik ta’limning muhim funksiyalaridan biri – sotsial tafakkurni shakllantirish, sotsiologik muammolarni tushunish, ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash hamda bartaraf etish yo‘llari va imkoniyatlarini qidirib topish. “Sotsiologiya” fani jamiyat dinamikasi hisoblanadi. Shu boisdan ham “Sotsiologiya” fanini umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan o‘rganish maqsadga erishish, xalqchil, adolatli, keng jamoatchilik fikri, intilishi, maqsadlari asosida ijtimoiy faoliyat yuritish imkonini beradi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish imkoniyatlarini, “Sotsiologiya” fani doirasida tahlil qilish, o‘rganish va olingan ilmiy-nazariy xulosalardan amaliyotda foydalanish muhim masalalardan biriga aylanmoqda.

Ushbu dasturda keltirilgan mavzu va masalalar davlat hamda jamiyat qurilishini takomillashtirishga, o‘zgarishlarga moslashishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda sotsiologiya sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holati hamda chet el tajribasi asosidagi zamonaviy amaliyotdan kelib chiqadi. Dasturda sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishi, uning tarkibiy tuzilishi, jamiyatni yaxlit tizim tariqasida tahlil qilish, ijtimoiy hayotda sotsial institutlar roli, deviant xulq-atvor va sotsial nazorat masalalari, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va stratifikatsion jarayonlar, sotsial munosabatlar, ijtimoiy taraqqiyot tendensiyalariga oid mavzular yoritilgan.

Dasturda qo‘yilgan mavzu va masalalar “Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi” ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgorlarning faqatgina shu sohadagi umumiylar bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki muammolar va ularning yechimlarini topish bo‘yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini ham talab qiladi.

Mazkur masalalar bo‘yicha nazariy muammolar falsafa doktori (PhD) talabgorlarning shaxsiy qarashlari shakllanishini yuzaga chiqarishga qaratilgan.

Ushbu dastur 22.00.02 – “Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi” ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgor tayanch doktorant va doktorantlar uchun mo‘ljallangan.

FANNI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILGAN TALABLAR:

- “Sotsiologiya” fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-nazariy shart-sharoitlar. O. Kont – pozitiv sotsiologiya asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejali. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta’limotlari (Platon, Aristotel, Forobiy,

Ibn Haldun va boshqalar) zamonaviy sotsiologiyaning muhim manbalari sifatida imkon qadar nazariy bilimga ega bo‘lishi;

- g‘arb sotsiologiyasi klassiklari ishlarida sotsiologiyaning obyekti va predmeti muammosini qisqacha mazmunini bilishi;
- Sotsiologiyaning turli yo‘nalishlarida fanning obyekti va predmeti muammosini yechish yo‘lidagi g‘oyaviy-nazariy izlanishlari haqida nazariy ma’lumotga ega bo‘lishi;
- Sotsiologiya fani bo‘yicha yangi yo‘nalishlarning mavjudligi va ularning talqini bilish;
- Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan munosabatini tahlil qila olishi;
- Sotsiologiya va falsafa. Sotsiologiya va tarix. Sotsiologiya va psixologiya, demografiya, genetika, sotsial geografiya. Sotsiologiya va tabiiy hamda aniq fanlar. Sotsiologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘ziga xos o‘rni hamda soha oid adabiyotlardan samarali foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

DASTURNING MAZMUNI

Ijtimoiy tuzilma.

“Ijtimoiy tuzilma” tushunchasi va uning ahamiyati. Ijtimoiy tuzilma va uning asosiy tarkibiy qismlari. Ijtimoiy qatlam. Ijtimoiy institutlar. Ijtimoiy guruhrar. Ijtimoiy maqom. Stratalar. Aholining ijtimoiy qatlami. Ijtimoiy mobillik. Ijtimoiy rollar. Jamiyat. Qatlam. Sinflar. Demografiya. Din. Qadriyatlar va me’yorlar. Tashkilotlar. Ijtimoiy rollar. Insonning jamiyat ijtimoiy tuzilmasidagi o‘rni. Individ. Empirik sotsiologiyaning bunyod bo‘lishi va uni sotsiologiya nazariyasini rivojiga ta’siri. Makroguruhrar va mikroguruhrar.

Jamiyat yaxlit tizim sifatida.

“Jamiyat” va “ijtimoiylik” tushunchasi. Sharq mutafakkirlarining jamiyat to‘g‘risidagi qarashlari. G‘arb sotsiologiyasi asoschilarini ishlarida ijtimoiylikning ta’riflanishi. M. Veber konsepsiyasida totalitar jamiyat, uning belgilari va ijtimoiy-siyosiy tashkil etilish usullari. Jamiyat va davlat. Jamiyatning mexanik, organik va boshqa tarzda ta’riflanishi. T. Parsons nazariyasida jamiyat tushunchasi, uning to‘rt funksiyali paradigmasi. Hozirgi jamiyatning turlicha ta’riflari. An’anaviy jamiyat va industrial jamiyat. O‘zgarishlar va islohotlar. Din va jamiyat integratsiyasi. Din va sotsial o‘zgarishlar. “Taraqqiyot strategiyasi”.

Ijtimoiy institutlar.

Sotsiologiyada “Ijtimoiy institut” tushunchasi. Ijtimoiy institut belgilari. Ijtimoiy institutning asosiy vazifalari. Ijtimoiy institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod,

ta’lim, huquq va boshqalar. Jamiyat hayotida ijtimoiy institutlarning o’rni. Turmush tarzi. Oila va nikoh. Fuqarolik institutlari. Ularning ko‘rinishi va vazifalari. Ijtimoiy guruhlar va xatti-harakat. Ishlab chiqarish, uning tarixiy shakllari va vazifalari. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va kasb. Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik. Davlat va jamiyatning siyosiy tizimi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish. Din sotsiomadaniy institut sifatida. Ta’lim ijtimoiy institut sifatida. Maktabgacha ta’lim, umumiyl, o’rta maxsus va oliy ta’lim. Oliy ta’lim va fan: tarkibi va ilmiy-pedagog kadrlar. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi va Yevropa hamda AQSH universitetlari: umumiylik va xususiylik. Ta’lim tizimidagi islohotlar. Ta’lim sotsial institut sifatida. Mahalla ijtimoiy institut sifatida. “Mahallabay” ishlash tizimi. Axborot xavfsizligi masalalari.

Deviant xulq-atvor va ijtimoiy nazorat.

“Deviant xulq-atvor” (og‘ma xulq-atvor) tushunchasi. Deviant xulq-atvor muammosini o‘rganish sotsiologiyada ilmiy yo‘nalish sifatida. Deviant xulq-atvor turlari: qonunni buzish, o‘z-o‘zini o‘ldirish, giyohvandlik, alkogolizm va boshqalar. E. Dyurkgeym, R. Mertonlarning deviant xulq-atvor nazariyalari, Z. Freyd va E. Frommlarning destruktivlik (strukturaning buzilishi) nazariyalari. Deviant xulq-atvor belgilari, ularning tuzilmasi. Deviant xulq-atvorni turkumlash. Buzilgan xulq-atvor mexanizmi. Deviant xulq-atvorning tibbiy-biologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy tomonlari. Hozirgi davrda deviant xulq-atvorning tarqalishi va o‘zgarishi. Deviant, delinkvent va kriminal xatti-harakatlar. Professional jinoyatchilik. Uyushgan jinoyatchilik. Dunyoda jinoyatchilik holati. Jinoyatchilikning oshishi va jamiyatning kriminallashuvi sabablari hamda namoyon bo‘lish shakllari. O‘smirlar va yoshlar jinoyatchiligi. Jamiyatda korrupsiya muammosi. Ijtimoiy nazorat. Ijtimoiy nazorat elementlari: me’yorlar va sanksiyalar. Ijtimoiy sanksiya turlari: pozitiv va negativ, rasmiy va norasmiy. Ijtimoiy me’yorlar tasnifi. Ijtimoiy me’yor turlari: huquqiy, diniy, an’anaviy va axloqiy. Jamoatchilik fikri ijtimoiy nazoratning shakli sifatida.

Jamiyat ijtimoiy tuzilmasi va stratifikatsion jarayonlar.

Ijtimoiy tuzilma to‘g‘risidagi antik davr mutafakkirlarining ta’limotlari. P.Sorokinning stratifikatsiya to‘g‘risidagi nazariyasi. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holat, mavqe, ta’lim va hokimiyat. Stratifikatsiya va sotsial differensiya. Stratifikatsion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar. Sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik nazariyasi sinfiylik ta’limotiga qarshi g‘oya sifatida. Jamiyat sotsial strukturasi rivojining zamonaviy tendensiyalari. Sotsial mobillik to‘g‘risidagi sotsiologiya klassiklari: M.Veber, E. Giddens, T. Parsons, P. Sorokin va boshqalarning qarashlari. Mobillik belgilari. Mobillik turlari: gorizontal va vertikal sotsial mobillik. Guruhiy va individual mobillik. Avlod ichidagi va avlodlar

o‘rtasidagi sotsial mobillik. Tuzilmaviy sotsial mobillik. Jamiyatda sotsial mobillik yo‘llari. Mobillikning demografik omillari. Migratsiya va uning tarixiy shakllari. Emigratsiya va migratsiya. Mehnat va iqtisodiy migratsiya. Xorijiy ishchi kuchlari bozori. Yangi O‘zbekistonda sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik jarayonini kechishi. Ijtimoiy himoya. “Taraqqiyot strategiyasi”da xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari. “Yoshlar daftari”, “temir daftar”, “xotin-qizlar daftari”.

Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari.

Sotsiologik tadqiqot dasturi. Dasturning strukturasi: nazariy – metodologik va metodik bo‘limlar. Dasturning asosiy elementlari: muammoni ta’riflash; tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetini aniqlash, obyektni tizimli tahlil qilish, tushunchalarni nazariy va empirik izohlash, gipotezalarni ifodalash; ma’lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish.

Sotsiologiyadagi ma’lumotlarni to‘plash metodlarining umumiylashtirilishi: so‘rov, kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o‘rganish metodlari, ularning o‘ziga xosligi.

So‘rov metodi. So‘rovning turlari. Anketa (so‘rov varaqasi) so‘rov metodining asosiy elementi sifatida. Anketa tuzish texnikasi. Anketaning umumiylashtirilishi. Anketadagi savollarning turlari, asosiy talablar. Og‘zaki so‘rov va uning xususiyatlari. Intervyu olish uslubi.

Kuzatish metodi va uning mohiyati. Kuzatish turlari. Kuzatishning aniqligi muammosi va uni ta’minlash usullari. Kuzatish davrlari va tartibi. Kuzatish asboblari, kuzatish natijalarini qayd etish usullari.

Hujjatlarni o‘rganish metodi. Sotsiologiyada “hujjat” tushunchasi, uning turlari. Hujjatlarning informatsiya manbai sifatidagi ishonchlik muammosi. Hujjatlarni tahlil qilish turlari. Kontent-tahlil hujjatlarni o‘rganish metodining bir turi sifatida.

Eksperiment metodi. Eksperiment turlari. Ijtimoiy eksperiment strukturasi, uning bilish imkoniyatlari. Obyektni tanlash, eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, eksperimental vaziyat, natjalarni tahlil qilish. Xulosalarni tahlil qilish usullari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishslashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-6705763>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6704824>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-401-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6704819>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruva tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-402-son qarori <https://lex.uz/docs/6705734>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-87-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5899498>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to'g'risida"gi 367-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-4850317>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'miasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 500-son qarori <https://www.lex.uz/uz/docs/-7061588>
12. 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo'miasi faoliyatini tashkil

etish to‘g‘risida” PQ-146-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-5884084>

13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so‘zi gazetasi 2017-yil 16-yanvar, № 11.

15. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

16. Mirziyoeyv Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild.–Toshkent “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

17. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

18. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416-b.

21. O‘zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6679>

Asosiy adabiyotlar

1. Абдурахмонов Ф.Р., Сайдходжаев Х.Б. Социология. Маъruzalар курси. – Тошкент. ЎЗРИИВА, 2000.
2. Багинин В.А. Социология: энциклопедический словарь. Михайлова В.А., Москва. 2005.
3. Бекмуродов М. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Академия, Тошкент. 2019 илденс Энтони. Социология: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма / Тарж. Н.Маматов ва Ж.Бегматов. – Т.: Шарқ, 2002. – 848 б.
5. Данило Маркович. Социология труда. Прогресс, Москва. 1998.
6. Дворецкая Г.В., Махнаров В.П. Социология труда. Уч. пособие. – Москва. 1998.
7. Долгоруков А.М. Практикум по общей социологии. – Москва. 2006.
8. Емишина П.С., Мутагирова Д.З., Скворцов Н.Т. Социология. – Москва. 2004.

9. Кандауров В.И., Страданченков А.С. Социология. Курс лекций. Инфрам, Москва. 2001.
10. Капитонов Э.А. Социология XX века. История и технология. – Ростов-на-Дону. 1996.
11. Качанов Ю. Начало социологии. Дикта, Москва. 2005.
12. Лавриненко В.И., Нартов Н.А. Основы социологических знаний. Уч. пособие. Москва.1995.
13. Муллажанова М.М. ва бошқа. Социология фанидан маъruzalар matnlari. ТошДИУ, Тошкент. 2003.
14. Носирхўжаев С., Бекмуродов М., Султонов Т., Носирхўжаева Н. Социология асослари. Маъruzalар матни. Низомий ном. ТДПУ, Тошкент. 2000.
15. Рыс Ю.И., Степанов В.Е. Социология. Учебник. – Москва. Дашков и К., 2006.
16. Соколова Н.Г. Экономическая социология. – Москва 1994.
17. Содиқова Ш.М. Ўзгаришлар социологияси. – Тошкент. Akademiya, 2019.
18. Sotsiologiya: darslik (Matn) / Farfiyev B.A. – Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2022 – 352 b.
19. Убайдуллаева Р.Т., Найдаров А. Социология тарихи. – Тошкент.: 1993.
20. Умарова Р., Саркисов Б. Социология. Ўқув қўлланма. – Тошкент.: 2004.
21. Юлдашев С. Социологик тадқиқот методологияси (матн) – Т.: Тошкент ислом университети, 2018. – 228 б.
22. Фролов А.Н. Социология. – Москва Логос, 1996.
23. Хан С., Хан В. Социология. Курс лекций. – Тошкент.: Адолат, 1999.
24. Харчева В. Основы социологии. – Москва, 1994.
25. Хеллевик О. Социологический метод. – Москва: Вес мир, 2005.
26. Холбеков А. Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг социологик таълимоти. – Тошкент.: 1996.
27. Бекмурадов М. Ўзбек менталитети. – Тошкент: Маънавият, 2010 .
28. Бекмурадов М. Социология асослари.– Тошкент. Фан, 1994 .
29. Бекмурадов М. Ўзбекистонда жамоатчилик фикри. – Тошкент. Фан, 2000.
30. Холбеков А., Идиров У. Социология:изоҳли луғат-маълумотнома. – Тошкент. Ибн Сино нашр., 1999.
31. Хошимов Т.Р. Социология. (Ўқув - услуб. қўлл.). – Тошкент. 1996.
32. Шикун А.И. Социология. Учебное пособие. – Москва Дикта, 2005.
33. Қурбонов Ш., Мажидов И., Қўчқоров Р. Олий таълим тизимида бошқарув кадрларини тайёрлаш. – Тошкент. Академия, 2002.
34. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования. – Москва. Добросвет, 1998.
35. Қирғизбоев М. Социология. Ўқув қўлланма. – Тошкент. Наврӯз. 2017.

Internet ma'lumotlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.istedod.uz
3. www.lex.uz
4. www.moiti.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.tdpu.uz
7. www.edu.uz
8. www.nadlib.uz
9. www.uni-vologda.ac.ru
10. www.teoriya.ru
11. www.pedlib.ru
12. http: www.lib.socio.msu.ru
13. http: www.socioline.ru
14. http: www.socio.rin.ru
15. http: www.sociologos.narod.ru
16. http: www.socionet.narod.ru
17. http: www.sociograd.ru
18. http: www.moiti.uz

Baholash mezonlari

Kirish imtihon og‘zaki ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo‘yiladigan talablar
86-100	Qo‘yilgan savolga to‘liq javob bergen. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to‘g‘ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergen. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas.